

O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGI INDEKSINI TAKOMILLASHTIRISH MODELII

*Kenjayeva Umriya Faxritdinovna,
TDIU, Innovatsion menejment kafedrası katta o‘qituvchisi
(0000-0002-2047-0427)
E-mail: u.kenjayeva@tsue.uz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan indeks modeli ishlab chiqiladi. Mavjud xalqaro standartlar — xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tamoyillari, Jahon banki va Xalqaro Moliya Korporatsiyasi tavsiyalari asosida takomillashgan ko‘rsatkichlar majmuasi taklif etilgan. Tahlil jarayonida O‘zbekistondagi bir nechta yirik aksiyadorlik jamiyatlari misolida ushbu model amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, taklif etilayotgan takomillashtirilgan indeks modeli korporativ boshqaruvning sifat jihatdan baholanishini ta‘minlaydi, investitsiyaviy jozibadorlikni oshiradi hamda boshqaruvdagi shaffoflik va mas‘uliyatni kuchaytiradi. Shuningdek, indeks O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan mezonlar asosida ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: Korporativ boshqaruv, samaradorlik indeksi, aksiyadorlik jamiyati, xalqaro standartlar, IHTT tamoyillari, manfaatlar to‘qnashuvi, shaffoflik, investitsion jozibadorlik, O‘zbekiston tajribasi, ichki nazorat.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ boshqaruv tizimi nafaqat aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini ta‘minlovchi vosita, balki investorlar ishonchini oshirish, kompaniyalarning barqaror rivojlanishi va kapital bozorining rivojiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tamoyillarining xalqaro standartlarga mos ravishda shakllanishi korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi va ularni global iqtisodiy integratsiyaga jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv sohasini isloh qilish bo‘yicha oxirgi yillarda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi”da davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, ularning ochiqqligi va samaradorligini oshirish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, amaldagi baholash mexanizmlarida korporativ boshqaruv samaradorligini tizimli ravishda o‘lchash imkoniyatlarining cheklanganligi, mavjud yondashuvlarning bir xilligi va xalqaro mezonlar bilan uyg‘unlashmaganligi korxonalar faoliyatini har tomonlama baholashda to‘siq bo‘lmoqda. Bu holat korporativ boshqaruvni rivojlantirishga oid davlat strategiyalarida ko‘zda tutilgan maqsadlarga to‘liq erishishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish kompaniyalarning barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.

Masalan, 2023-yilda yangilangan G20/IHTT Iqtisodiy hamkorlik taraqqiyot tashkilotining Korporativ boshqaruv tamoyillarida aksiyadorlar huquqlari, axborotlarning ochiqligi, direktorlar kengashining mas’uliyati va, birinchi marta, barqarorlik va chidamlilik masalalari bo’yicha yangi va yangilangan ko’rsatmalar kiritildi. Bu tamoyillar kompaniyalarga kapital bozorlaridan moliyalashtirishni ta’minlash, investorlarni himoya qilish va kompaniyalarni, shuningdek, iqtisodiyotimizni yanada barqaror qilishga yordam berishni maqsad qiladi.

Shuningdek, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Korporativ boshqaruv metodologiyasi kompaniyalarning boshqaruv amaliyotlarini baholash va yaxshilash uchun umumiy yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya kompaniyalarning boshqaruv amaliyotlarini baholash va yaxshilash uchun umumiy yondashuvni taqdim etadi, shu jumladan, atrof-muhit va ijtimoiy xavflarni boshqarish, direktorlar kengashining samaradorligi va manfaatdor tomonlar bilan aloqalarni o’z ichiga oladi.

Mazkur holatni inobatga olgan holda, O’zbekiston sharoitlariga mos, xalqaro tajriba asosida takomillashtirilgan Korporativ boshqaruv samaradorligi indeksini (KBSI) takomillashtirish va amaliyotga joriy etish zarurati paydo bo’lmoqda. Taklif etilayotgan indeks modeli orqali aksiyadorlik jamiyatlaridagi boshqaruv sifatini aniq mezonlar asosida baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga doir strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlari kengayadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

So’nggi yillarda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini baholash hamda xalqaro mezonlarga moslashtirish bo’yicha ko’plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu boradagi adabiyotlarni tahlil qilish orqali mavjud ilmiy qarashlar, yondashuvlar va bo’shliqlarni aniqlash mumkin.

Xalqaro miqyosda korporativ boshqaruvni baholash tizimlari keng qo’llanilmoqda. Xususan, IHTT tomonidan ishlab chiqilgan “G20/IHTT Korporativ boshqaruv tamoyillari” dunyoning ko’plab davlatlarida asosiy metodologik vosita sifatida qo’llaniladi. Ushbu tamoyillar muassasaviy investorlar ishonchini mustahkamlash, direktorlar kengashi faoliyatini takomillashtirish va manfaatlar to’qnashuvini bartaraf etishga qaratilgan. 2023-yilda yangi nashr qilingan IHTT tamoyillari xalqaro darajada boshqaruv standartlarini baholashda universal mezon sifatida xizmat qilmoqda.

Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (International Finance Corporation) tomonidan 2021-yilda ishlab chiqilgan Korporativ boshqaruv reytingi Meksika, Indoneziya, Filippin, Gruziya kabi davlatlarda tatbiq etilib, boshqaruv samaradorligi baholashda samarali natija bergan. Bu model 5 ta yo’nalish: aksiyadorlar huquqlari, boshqaruv organlari faoliyati, axborotlar ochiqligi, nazorat tizimi va manfaatlar to’qnashuvi asosida baholashni amalga oshiradi.

Shuningdek, Jahon banki o’zining “Doing Business va Boshqaruv” Indiktorlari hisobotlarida kompaniyalar boshqaruv tizimi, huquqiy muhit va investorlarni himoya qilish ko’rsatkichlarini baholab kelmoqda. 2020-yilgi ma’lumotlarga ko’ra, O’zbekistonda investorlarni himoya qilish bo’yicha indeks 5,0 ball / 10 ballik tizimda nisbatan past bo’lgan, bu esa islohotlarning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan 2023-yilda taqdim etilgan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi”da O‘zbekiston 180 davlat ichida 126-o‘rinni egallagan. Bu esa shaffoflik va hisobdorlik masalalari hali dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash bo‘yicha xalqaro miqyosda bir qator tadqiqotlar va metodologiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, Clarke o‘z asarida korporativ boshqaruvda manfaatdor tomonlar nazariyasini asoslab, samaradorlikni nafaqat moliyaviy natijalar, balki ijtimoiy va ekologik mas’uliyat orqali ham baholash zarurligini ko‘rsatgan. Aguilera va Cuervo-Cazurra esa boshqaruv samaradorligi milliy institutsional muhit bilan bevosita bog‘liq ekanini ta’kidlab, indikatorlar tanlovida mamlakat konteksti muhimligini asoslab beradi.

Mallin korporativ boshqaruv samaradorligi va indekslar (CG Index, ESG Index) o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida xalqaro reytinglar va indeksning investitsion jozibadorlikka ta’siri chuqur yoritilgan.

O‘zbekistonlik olimlar korporativ boshqaruv bo‘yicha bir qator muhim ilmiy ishlarni amalga oshirgan. Xususan, E. O‘rinboyev O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida shaffoflik va moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish korporativ boshqaruv samaradorligining muhim omili ekanini ta’kidlab o‘tgan.

A. Qurbonov o‘z tadqiqotida direktorlar kengashining mustaqilligi va ijro etuvchi organlar faoliyati samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik tahlil asosida asoslab berdi.

T. Egamberdiyev korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda ichki audit tizimi va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

R. Mahmudov o‘z monografiyasida O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini, shu jumladan, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashining rolini o‘rganadi.

Ushbu ishlar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularda samaradorlikni indekslash metodikasi yoki kompleks baholash modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy asosini korporativ boshqaruv sohasidagi xalqaro ilmiy ishlanmalar, xususan, Iqtisodiy hamkorlik taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlar va metodik ko‘rsatmalar tashkil etadi. Shuningdek, korporativ boshqaruv samaradorligini baholashga oid ilmiy qarashlar, xorijiy va mahalliy olimlarning izlanishlari, baholash tizimlari, Korporativ boshqaruv ko‘rsatkichlari, ESG reytinglari tadqiqotning nazariy negizini belgilaydi.

Tadqiqot uslubiy jihatdan tizimli yondashuv, kompleks tahlil, ko‘p mezonli baholash usullari, statistik tahlil, indekslash va modellash metodlariga asoslanadi.

Tadqiqotda korporativ boshqaruv tizimining tarkibiy elementlari: direktorlar kengashi, aksiyadorlar huquqlari, shaffoflik, manfaatlar to‘qnashuvi va ichki nazorat tizimlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – xalqaro tajriba va mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida

korporativ boshqaruv samaradorligini tizimli baholash imkonini beruvchi takomillashgan indeks modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari korporativ boshqaruv samaradorligini baholovchi xalqaro tizimlarni o'rganish, mahalliy amaliyotdagi korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish, indeks modelini shakllantirish uchun mezonlar va indikatorlar tizimini takomillashtirish, ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar

Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarining barqarorligi, investitsion jozibadorligi va shaffofligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Mamlakatimizda davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish strategiyasiga muvofiq, korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shu bois, mavjud tizimni chuqur tahlil qilish va zamonaviy baholash mexanizmini yaratish zarurati paydo bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ko'plab aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, ularning samaradorligini tizimli baholovchi yagona indikatorlar majmuasi mavjud emas. 2023-yilda o'tkazilgan monitoringga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarining faqat 48 foizi korporativ boshqaruvning eng muhim prinsiplari – mustaqil direktorlar ishtiroki, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va axborotlarni ochiqlik bilan ta'minlash kabi elementlarni to'liq joriy qilgan. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining hisob-kitoblariga ko'ra, korporativ boshqaruvning rivojlangan darajasi kompaniyalar moliyaviy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi: ROE (aksiyadorlar kapitalining rentabelligi) o'rtacha 12–15 foizgacha oshadi [1].

Ushbu holatlarni inobatga olib, tadqiqotda O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan korporativ boshqaruv samaradorligi indeksining modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb topildi. Model xalqaro tajriba xususan, Iqtisodiy hamkorlik taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Jahon banki tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimi holatini 6 asosiy mezon bo'yicha kvantitativ (ballik) baholashga asoslanadi.

Indeks modeli quyidagi asosiy yo'nalishlardan tashkil topdi:

1. Direktorlar kengashi mustaqilligi – Kengashda mustaqil a'zolar soni, ularning real ta'siri, siyosiy betarafligi, kompaniya strategiyasi va nazorati ustidan bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarkibiy omil.
2. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish – Ovoz berish huquqlari, dividend siyosati, mulkiy manfaatlar kafolati, majoritar va minoritar aksiyadorlarning teng huquqlari va ovoz berish mexanizmlarini ta'minlash.
3. Axborotlar oshkorligi va shaffoflik – Yillik hisobotlar, moliyaviy natijalar, qarorlar ommaga e'lon qilinishi, moliyaviy va korporativ ma'lumotlarning oshkoraligi, hisobdorlik darajasi.
4. Ichki nazorat va audit tizimi – Mustaqil audit, risklarni baholash va monitoring mexanizmlari mavjudligi, kompaniya faoliyatining qonuniyligi va samaradorligi ustidan mustaqil nazoratni ta'minlovchi vosita.

5. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish mexanizmi – Ichki siyosatlar, kodekslar, etik qo‘mitalar faoliyati, korrupsion holatlarning oldini olish va manfaatdor tomonlar o‘rtasida muvozanatni saqlash.

6. Barqarorlik va mustahkamlik – ESG, Barqaror rivojlanish strategiyasining mavjudligi, risklarni boshqarish va inqirozlarga chidamlilik, ijtimoiy mas’uliyat, Korporativ barqarorlikka oid hisobotlar, energiya samaradorligi va yashil tashabbuslar.

Korporativ boshqaruv tizimini baholashda mavjud indikator yo‘nalishlarida “Barqarorlik va mustahkamlik” indikatorni kiritish orqali kompaniyalarning uzoq muddatli rivojlanishga sadoqatini baholash mumkin. Ushbu ko‘rsatkich korporativ boshqaruvda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlash, kompaniyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlardagi mustahkamligini baholaydi. Mezonda quyidagi tarkibiy elementlar inobatga olinadi:

- ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga muvofiqlik – kompaniyaning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va boshqaruv jarayonlarining halolligini kafolatlovchi amaliyotlari.

- Barqaror rivojlanish strategiyasining mavjudligi – kompaniya faoliyatining ijtimoiy va ekologik ta’sirlarini nazarda tutuvchi, BMTning SDG (Sustainable Development Goals) maqsadlariga mos strategiyalar.

- Risklarni boshqarish va inqirozlarga chidamlilik – iqtisodiy, moliyaviy, ekologik va boshqa operatsion tahdidlarga qarshi barqaror tizimlar mavjudligi.

- Ijtimoiy mas’uliyat va ishtirok – kompaniyaning mahalliy jamoalar, mehnatkashlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan mas’uliyatli va shaffof hamkorlik qilish darajasi.

- Korporativ barqarorlikka oid hisobotlar – GRI (Global Reporting Initiative) yoki boshqa xalqaro standartlarga muvofiq barqarorlik hisobotlarining e’lon qilinishi.

- Energiya samaradorligi va yashil tashabbuslar – qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik xavfsizlikka doir tashabbuslar.

Barqarorlik va mustahkamlik mezonini baholashda quyidagi asosiy jihatlariga e’tibor qaratish lozim.

1-jadval.

Barqarorlik va mustahkamlik mezonini baholashda e’tibor qaratiladigan asosiy jihatlar¹

T/r	Barqarorlik va mustahkamlik mezon	E’tibor qaratiladigan asosiy jihatlar
1.	Strategik integratsiya	Kompaniyada barqarorlik (sustainability) va ijtimoiy mas’uliyat masalalari korporativ strategiyaning ajralmas qismi sifatida qarayaptimi?
		ESG tamoyillari (Environmental, Social, Governance) kompaniya strategik rejalarida aks etganmi?
2.	Ekologik mas’uliyat	Kompaniya atrof-muhitga zarar yetkazmaslik bo‘yicha qanday chora-tadbirlarni amalga oshiryapti?

¹ Iqtisodiy adabiyotlardan foydalanilib, muallif tomonidan tuzildi.

		Qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish darajasi, chiqindilarni qayta ishlash tizimining mavjudligi.
		Energiya samaradorligi, suv va havo resurslaridan oqilona foydalanish ko'rsatkichlari.
3.	Ijtimoiy mas'uliyat	Ishchilar huquqlarini himoya qilish, salomatlik va xavfsizlik bo'yicha standartlarga rioya etilishi.
		Mahalliy hamjamiyatlar bilan aloqalar, xayriya va ijtimoiy loyihalardagi ishtirok.
		Gender tengligi, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sharoitlar yaratish holati.
4.	Tashqi baholov va hisobot berish	Kompaniya GRI, SASB, TCFD, yoki boshqa xalqaro barqarorlik hisobot standartlari asosida muntazam hisobot taqdim etadimi?
		Hisobotlarda asosiy ESG indikatorlari to'liq va oshkora keltirilganmi?
		Mustaqil tashqi auditorlar yoki reyting agentliklari tomonidan ESG ko'rsatkichlar baholanganmi?
5.	Risklarni boshqarish va barqarorlikka moslashuv	Atrof-muhit, ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlarga nisbatan barqarorlik rejasi ishlab chiqilganmi?
		Kutilmagan inqirozlar (iqtisodiy, iqlimiy, pandemiya va b.) yuz berganda kompaniya qanday choralar ko'radi?
		Raqamli transformatsiya va texnologik rivojlanishga tayyorgarlik darajasi.
6.	Korporativ boshqaruv bilan bog'liqlik	Barqarorlik tamoyillari direktorlar kengashi yoki boshqaruv organlari kun tartibiga kiritilganmi?
		ESG bilan bog'liq masalalar uchun mas'ul ichki tuzilma (masalan, ESG qo'mitasi) mavjudmi?
		Kompaniyaning ustavida yoki siyosat hujjatlarida barqarorlik majburiyatlari mavjudmi?

Xalqaro investorlar aynan ESG ko'rsatkichlari asosida qaror qabul qilishmoqda, bu mezon investorlar ishonchini oshiradi. O'zbekistonning global moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi uchun bu dolzarb mezon hisoblanadi.

Har bir mezon 0 dan 100 ballgacha baholanadi, maksimal baho – 100 ball. Umumiy indeks 6 mezon bo'yicha o'rtacha ball hisoblanadi. Tadqiqotda korporativ boshqaruv samaradorligi indeksini (KBSI) hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanildi:

$$KBSI_i = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n S_{ij}$$

Bu yerda S_{ij} – i -kompaniyaning j -mezon bo'yicha olgan bali, n esa baholash mezonlari soni (6 ta: direktorlar kengashi mustaqilligi, aksiyadorlar huquqlari, axborotlar ochiqdigi, ichki audit tizimi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish mexanizmi, barqarorlik va mustahkamlik). Bu yondashuv aksiyadorlik jamiyati boshqaruvini obyektiv baholash, zaif jihatlarni aniqlash va kelgusida takomillashtirish choralarni rejalashtirish imkonini beradi.

Natijalar 100 ballik tizimda chiqariladi va kompaniya reytinglanadi:

85–100 ball – Yuqori samaradorlik

70–84 ball – O‘rtacha samaradorlik

55–69 ball – Qoniqarli, lekin rivojlantirish zarur

54 ballgacha – Zaif korporativ boshqaruv

Bu model asosida aksiyadorlik jamiyatlari o‘z boshqaruv tizimidagi zaif jihatlarni aniqlaydi, investorlar va davlat tashkilotlari aksiyadorlik jamiyati boshqaruviga nisbatan aniq baho beradi. Shuningdek, solishtirma tahlil asosida tarmoq yoki hududlar kesimida tahlillar o‘tkazish mumkin yoki aksiyadorlik jamiyatlariga korporativ boshqaruvni yaxshilash bo‘yicha yo‘l xaritalari ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot doirasida 30 ta yirik aksiyadorlik jamiyatining 2020–2023 yillar oralig‘idagi moliyaviy va korporativ hisobotlari asosida indekslar hisoblab chiqildi.

2-jadval.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv samaradorligi indeksi²

№	Aksiyadorlik jamiyati nomi	Direktorlar kengashi mustaqilligi	Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish	Axborotlar oshkorligi va shaffoflik	Ichki nazorat va audit tizimi	Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish mexanizmi	Barqarorlik va mustahkamlik	Umumiy index
1	O‘zbekiston temir yo‘llari AJ	88	78	64	92	57	70	74.8
2	O‘zbekneftgaz AJ	70	88	68	72	60	65	70.5
3	O‘zavtosanoat AJ	60	73	85	89	73	75	75.8
4	O‘zmetkombinat AJ	52	71	51	73	93	60	66.6
5	Olmalik KMK AJ	79	87	51	70	82	72	73.5
6	Navoiy KMK AJ	61	71	93	74	98	74	78.5
7	O‘ztransgaz AJ	76	91	77	65	64	68	73.5
8	O‘zbekko‘mir AJ	96	100	93	52	86	69	82.6
9	O‘zbektelekom AJ	100	56	70	58	88	76	74.6
10	O‘zsanoatqurilishbank ATB	67	53	74	63	99	67	70.5
11	O‘zmilliybank AJ	58	75	51	69	77	62	65.3
12	Agrobank ATB	96	56	93	57	96	73	78.5
13	Qishloqqurilishbank ATB	84	63	66	85	99	71	78.0
14	Asakabank ATB	89	53	51	55	91	64	67.1
15	Mikrokreditbank ATB	53	78	67	75	93	70	72.6
16	Turonbank ATB	83	59	85	63	80	66	72.6
17	Aloqabank ATB	97	64	57	63	72	72	70.8
18	Navoiyazot AJ	89	70	65	94	67	75	76.6
19	O‘zbekiston pochta AJ	96	73	75	74	94	74	81.0
20	Hududgazta‘minot AJ	90	78	64	94	50	65	73.5
21	Hududiy elektr tarmoqlari AJ	74	56	58	73	50	68	63.1
22	Issiqlik elektr stansiyalari AJ	93	57	73	60	100	70	75.5

² Ochiq ma‘lumotlardan asosida muallif tomonidan tuzildi.

23	O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari AJ	66	57	84	84	82	71	74.0
24	O'zbekgidroenergo AJ	54	91	88	90	77	67	77.8
25	Navoiyuran DK	56	58	57	61	83	64	63.1
26	Uzbekistan Airports AJ	82	97	72	73	86	78	81.3
27	Uzbekistan Airways AJ	84	93	89	71	76	76	81.5
28	Toshshahartransxizmat AJ	84	50	84	86	96	69	78.1
29	UzGasTrade AJ	63	52	50	54	75	62	59.3
30	Uzparqurilish AJ	63	88	76	58	64	68	69.5

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, "O'zbekko'mir" AJ, "O'zbekiston pochta" AJ, "Uzbekistan Airports" AJ, "Uzbekistan Airways" AJ, "Navoiy KMK" AJ, "Agrobank" ATB, "Qishloqqurilishbank" ATB, "Toshshahartransxizmat" AJ, "Navoiyazot" AJ, "O'zbekgidroenergo" AJ eng yuqori umumiy indeks ko'rsatkichlariga ega aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi. Ushbu aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvning barcha yo'nalishlarida barqaror yondashuvga ega bo'lib, ayniqsa aksiyadorlar huquqlari, axborotlar ochiqqligi va manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish kabi mezonlar bo'yicha yuqori ball to'plagan.

Korxonalarining katta qismi (taxminan 60%) 70–80 ball oralig'ida indeks ko'rsatkichiga ega bo'lib, bu ularning korporativ boshqaruvda qisman tizimli yondashuvga ega ekanligini ko'rsatadi.

"O'zmilliybank" AJ, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "UzGasTrade" AJ kabi aksiyadorlik jamiyatlari nisbatan past indeksga ega bo'lib, ayniqsa direktorlar kengashining mustaqilligi va axborotlar ochiqqligi mezonlarida sust yondashuv mavjud. Bu korxonalarda ichki nazorat va manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish tizimida ham zaifliklar kuzatilmoqda.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarining katta qismida direktorlar kengashining mustaqilligi (60–70 ball atrofida), axborotlar ochiqqligi va Barqarorlik va mustahkamlik (65–75 ball atrofida) bo'yicha natijalar nisbatan past. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarida shaffoflik, tashqi monitoring va mustaqil qaror qabul qilish mexanizmlarining zaifligini ko'rsatadi.

Bu natijalar taklif etilayotgan indeks modelining amaliy foydaliligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv nafaqat kompaniya boshqaruvining samaradorligini baholash, balki ularni rivojlantirish uchun yo'l xaritalarini ishlab chiqishda ham qo'llanilishi mumkin.

Xulosa

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash va takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv samaradorligi indeksi (KBSI) modeli kompaniyalarning boshqaruv faoliyatini bevosita 5 ta mezon asosida baholash imkonini beradi: direktorlar kengashi mustaqilligi, aksiyadorlar huquqlari, axborotlar ochiqqligi, ichki nazorat va audit tizimi, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmi.

Indeksni amalda qo'llash orqali 30 ta yirik aksiyadorlik jamiyatining korporativ boshqaruv darajasi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar o'rtasida boshqaruv sifati bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari yuqori indeksga ega bo'lgan bo'lsa, ba'zilarida bu sohada jiddiy kamchiliklar kuzatilmoqda. Bu esa taklif etilgan modelning amaliy ahamiyatini va baholash vositasi sifatida ishlatilishini tasdiqlaydi. Taklif etilgan indeks modeli quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

Korporativ boshqaruv samaradorligi indeksi modelini milliy standart sifatida joriy etish: Aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini baholashda ushbu indeksni yagona mezon sifatida qabul qilish va har yili monitoring olib borish amaliyotini yo'lga qo'yish.

Axborotlar ochiqligini oshirish bo'yicha huquqiy talablarni kuchaytirish: Indeks natijalariga ko'ra axborotlar ochiqligi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bu sohaga e'tibor kuchaytirilishi lozim.

Mustaqil direktorlar institutini mustahkamlash: Direktorlar kengashida mustaqil a'zolar ulushini oshirish bo'yicha huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni ishlab chiqish.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish tizimini standartlashtirish: Kompaniyalarda ushbu mexanizm bo'yicha yagona metodologiya va ichki reglamentlarni joriy etish.

Indeks natijalari asosida kompaniyalar uchun reyting va audit tizimi yaratish: Bu orqali investorlarga ishonchli ma'lumot taqdim etish va korporativ boshqaruv madaniyatini oshirish mumkin bo'ladi.

Davlat ishtirokidagi kompaniyalar uchun maxsus yo'l xaritalari ishlab chiqish: Kam ko'rsatkichlarga ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun KBSI natijalari asosida tizimli islohotlar dasturini shakllantirish zarur.

Korporativ boshqaruv samaradorligi indeksini orqali nafaqat yirik, balki o'rta va kichik aksiyadorlik jamiyatlarining ham korporativ boshqaruv darajasini muntazam baholash mumkin bo'ladi, bu esa mamlakat miqyosida barqaror va raqobatbardosh korporativ boshqaruv muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqligi, investitsion jozibadorligi va boshqaruv sifati oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. Corporate Governance for Economic Development. Private Sector Opinion. Washington, International Finance Corporation, 2021.
2. International Finance Corporation. IFC Corporate Governance Progression Matrix for Listed Companies. Washington, International Finance Corporation, 2022.
3. World Bank. Global Economy to Expand by 4 Percent in 2021. Vaccine Deployment and Investment Key to Sustaining the Recovery. Washington, World Bank, 2021.
4. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance. Paris, Organisation for Economic Co-operation and Development, 2023.

5. International Finance Corporation. Corporate Governance Scorecards. A Tool for Benchmarking and Policy Dialogue. Washington, World Bank Group, 2020.
6. Clarke T. International Corporate Governance. A Comparative Approach. London, Routledge, 2007.
7. Aguilera R.V., Cuervo-Cazurra A. Codes of Good Governance. Corporate Governance. An International Review, 2009, Volume Seventeen, Issue Three, Pages 376–387.
8. World Bank. Corporate Governance. Reports on the Observance of Standards and Codes. Washington, World Bank Publications, 2021.
9. MSCI Inc. MSCI ESG Ratings Methodology. New York, MSCI, 2022.
10. Standard and Poor's. Governance Risk Indicators. New York, S and P Global Ratings, 2021.
11. Qaror. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil yigirma to'qqizinchi martdagi qarori. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi. Qonun hujjatlari milliy bazasi.
12. O'zbekiston Respublikasi Korporativ Boshqaruv Kodeksi. Qabul qilingan sana: 2015-yil o'ttiz birinchi aprel.
13. Ibragimov T.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida institutsional boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2021-yil, Ikkinchi son, Sahifalar 65–72.
14. Sayfullayev Sh.A. Korporativ boshqaruv sifatining moliyaviy natijalarga ta'siri. O'zbekiston tajribasi. Ilmiy-amaliy jurnal Bozor, Pul va Kredit, 2022-yil, To'rtinchi son, Sahifalar 40–48.
15. Mahmudov D.E. Xalqaro korporativ boshqaruv standartlari va ularning milliy modelga uyg'unligi. Ilmiy jurnal Innovatsion rivojlanish. Nazariya va amaliyot, 2023-yil, Uchinchi son, Sahifalar 98–105.